

## NEMIS TILIDA QO‘SHMA SO‘ZLARNING YARATILISH TARIXI

*Aziza Matnazarova Alisher qizi*

*O‘ZMU Xorijiy filologiya fakulteti*

*Lingvistika (nemis tili yo‘nalishi 1-kurs magistranti*

*[azizamatnazarova22a@gmail.com](mailto:azizamatnazarova22a@gmail.com)*

*+998976089400*

*F.f.f.d (PhD) Gavhar Tilovova Abdaxatovna*

*+998946658305*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qo‘shma so‘zlarning qadimiy adabiy nemis tili davridan to XIX asrgacha bo‘lgan paytlarda qo‘llanilish va yaratilish tarixi, maqsadi, ahamiyati haqida gap boradi. Bundan tashqari bir qancha tilshunos olimlarning o‘z asarlarida yoki ayrim manbalarda qo‘shma so‘zlarning bir qancha turlaridan unumdor va samarali foydalangan. Ko‘rsatilgan namunalari orqali olimlarning shu mavzuga doir fikr va mulohazalari bayon etilgan.

**Annotation:** this article enlightens the history, purpose, significance of the use and creation of composition words from the era of the ancient literary German language to the 19th century. In addition, several linguists have made fertile and effective use of several types of composition words in their works or in other sources. Through the given samples, the linguists described their opinions and considerations on the same topic.

**Kalit so‘zlar:** nemis tili, qo‘shma so‘zlar, qadimgi adabiy nemis tili, o‘rta adabiy nemis tili, komponent.

**Key words:** German language, composition words, Old German Literary, Middle German Literary, component

Yangi so‘zlarga, so‘z birikmalariga bo‘lgan katta ehtiyoj tufayli tilning, so‘z boyligining oshishiga zaruriyat va talab oshmoqda. Nemis tili ham boshqa faol tillar kabi boyib, rivojlanib bormoqda. Ya’ni so‘z yasash orqali, iboralar yoki chetdan o‘zlashgan so‘zlar, qo‘shimchalar qo‘shish va albatta, eng mahsuldor va samarali usullaridan biri bo‘lmish - qo‘shma so‘zlar yasash orqali rivojlanib borayotganini ta’kidlab aytish joizdir. Bu usul yordamida nemis tilining boyishi nafaqat katta qismini tashkil qiladi, balki bir qancha boshqa tillardan farqli o‘laroq yangi so‘zlarni va ko‘pchilik vaziyatlarda bitta, ikkita va undan ortiq so‘zlarni, morfemalarni, leksemalarni tarkibiga qo‘shish orqali yangi ma’nolarni va o‘xshash ma’nolarni angalatadigan so‘zlar yoki murakkab so‘zlarni hosil qilish mumkin. Masalan, *der Zug+das Vogel - Zugvogel* bu yerda „poyezda uchayotgan qushlar“ emas, balki qish fasli yaqinlashishi bilan bir qator bo‘lib boshqa o‘lkalarga qushlarning uchib ketishi

nazarda tutiladi. Bu yerda ikkita mustaqil soʻzni qoʻshish orqali yangi maʼno kelib chiqmoqda.

Nemis tilidagi qoʻshma soʻz tushunchasi „Kompositum“ aslida lotin tilidan „composito“ soʻzi orqali kirib kelgan. Ilk marotaba qoʻshma soʻzlarning namunalari hind-yevropa tillarida kuzatish mumkin. Oʻsha davrlarda qoʻshma soʻzlarning ikki farqli qatlami alohida muhim ahamiyatga ega boʻlgan. Birinchisi qadimgi adabiy tildan bevosita yoki qadimgi til modellari orqali shakllangan. Ikkinchisi esa yoshroq qatlamlardan yaʼni baʼzi tillar sohasida rivojlangan va zamonaviy tillarda mashhur boʻlgan.<sup>1</sup> Nemis tilida qoʻshma soʻzlarning bevosita rivojlanishi quyidagicha 750 yildan to 1050 yilga qadar boʻlgan davrlarni oʻz ichiga qamrab oladi.

Qadimgi adabiy nemis tilida va qadimgi saks tilida ayniqsa, otlashgan koʻplab qoʻshma soʻzlar paydo boʻlgan. Masalan, *herbistmanoth* („Herbstmonat“) *erdgruoba* (Erdgrube) yoki *tresekamera* (Schatzkammer). Shu paytlarda asosan qoʻshma soʻzlarning aniqlovchi (determinativ) yaʼni birinchi va ikkinchi tarkibiy qismi bir-biriga yaqin boʻlgan turi yuqori miqdorda koʻp qoʻllanilgan. Bundan tashqari qadimgi adabiy nemis tilida qoʻshma soʻz tarkibi oʻzlashgan tarkibdan iborat boʻlgan. Masalan *tresekamera* bu bir kamera, tarkibida *treso* („der Schatz“, her. Latein)<sup>2</sup> soʻzlaridan tashkil topgan.

Qadimgi adabiy nemis tilida qoʻshma soʻzlarning tendensiyasining asosiy tarkibiy qismi koʻpincha otlashgan sifat bilan qoʻllanilgan. Masalan *goldfahs* (goldhaarig). Oldingi davrlarda eng yuqorida turgan strukturalarning tiplarini oʻzgartirish yoki oʻrnini boshqa soʻzlar bilan oʻzgartirish mumkin boʻlgan.

Oʻrta davrdagi qadimgi adabiy nemis tilida qoʻshma soʻzlarning haqiqiy boʻlmagan (unechte) qoʻshma soʻzlarning sonini oʻsganini kuzatish mumkin. Haqiqiy va haqiqiy boʻlmagan soʻzlar tushunchasini ilk bor qoʻshma soʻzlarda Jacob Grimm qoʻllagan. Haqiqiy boʻlmagan qoʻshma soʻzlar deganda, birinchi tarkibi moslashuvchan, oʻzgaradigan boʻlgan qoʻshma soʻzlar tushuniladi. Masalan *kirchengelt* (Kirchensins) oder *goteshus* (Gotteshaus). Shu kabi qoʻshma soʻzlarning turlarining paydo boʻlishining asosiy sabablaridan biri bu qarashlilikni ifadolovchi (Genitivattribute) shakliga boʻlgan qiziqishdir. Shu oʻrinda aytish joizki, yaʼni bu qoʻshma soʻzlar bir xil turdagi boshqa strukturaviy namunalarni oldingi davr oliy nemis tilisida ommaviy shakllantirdi va rivojlanlantirdi.<sup>3</sup>

1350-1650 yillargacha boʻlgan davrlarda yaʼni oldingi yangi qadimiy nemis tilida qoʻshma soʻzlar tarkibi asosan otli qoʻshma soʻzlar boʻlib, oʻsha davrda keng

<sup>1</sup> Hermann Paul, *Prinzipien der Sprachgeschichte* (Tübingen: Max Niemeyer, 1995), -S. 327.

<sup>2</sup> Hans Ulrich Schmid, *Einführung in die deutsche Sprachgeschichte: Lehrbuch Germanistik*(Stuttgart: J. B. Metzler, 2009), -S. 242.

<sup>3</sup> Hans Ulrich Schmid, *Einführung in die deutsche Sprachgeschichte: Lehrbuch Germanistik*(Stuttgart: J. B. Metzler, 2009), S.256

qo‘llanilgan va o‘ta muhim ahamiyat kasb etgan. Yanada chuqurroq anglash uchun quyidagilarni ko‘rsatib o‘tish joiz.

1. Ikki komponentli sifatida aniq otlar: masalan *agenfleisch*, *agenbuch*.

2. Ikki komponentli sifatida mavhum otlar: *badenfahrt* („Reise an einen Badeort“), *bärangejeide* („Bärenjagd“). Bundan tashqari o‘sha davrlarda tarkibi qiyosiy darajali sifatlardan tashkil topgan qo‘shma so‘zlar ham rivojlana boshlagan, ayniqsa, ma‘noni kuchaytirish maqsadida keng qo‘llanilgan masalan *allerbescheidenst*, *allerwunderlichst*<sup>4</sup>.

XVI asrlarda esa tarkibiy qismlari yonma-yon bog‘lanmasdan o‘zaro qo‘shib yozilmasdan qo‘llanilgan. Masalan *exempel buch* oder *sturm wind* va bu kabi misollar asosan Luther asarlarida uchragan.

XVII asrlarda esa bir biriga bog‘liq bo‘lgan so‘zlar chiziqcha bilan Gimmelshaus asarlarida ajratilib ko‘rsatilgan. *Kalb-Fell*, *Nacht-Imbi* va shu ayni damda o‘sha muallifning boshqa asarlarida esa birga qo‘shib yozish kabilar ham ko‘p uchragan. Masalan *Tranckgelt*, *Sonnenwende*. XVII asrning ikkinchi yarmida esa qo‘shma so‘zlarning ko‘p komponentli turlari paydo bo‘la boshlagan. Gimmelhausning asarlarida ham yana nafaqat chiziqcha bilan ajratilib yoziladigan va balki ko‘p tarkibli qo‘shma so‘zlarni uchratishimiz mumkin. Masalan *Reichs-Hofmeister* oder *Mittags-Mahlzeit*<sup>5</sup>.

XIX asrning 30-yillarida sanoatlashtirish, xususiylashtirish fabrika kabi atamalar paydo bo‘lishi bilan shu atamalarga bog‘liq holda qo‘shma so‘zlar shakllana boshladi. Masalan, *Fabrikarbeiter*, *Großindustrie*, *Großproduktion*.

XIX asrning boshlarida esa ilm-fan texnika rivojlanishi sababli tarkibi shu yuqoridagi so‘zlarga oid qo‘shma so‘zlar paydo bo‘la boshlagan. Ya‘ni o‘sha davrlardagi kashfiyotlar bilan bog‘liq so‘zlar bilan qo‘llashgan. Masalan, *Dampfmaschine* (1831), *Waschmaschine* (1831), *Schreibmaschine* (1880).

Qo‘shma so‘zlarning yaratilish va ulardan foydalanish tarixiga nazar tashlar ekanmiz, avvalambor, shu yuqorida keltirilgan nemis tilining rivojlanish bosqichlari katta ahamiyat kasb etadi. Qadimgi adabiy nemis tili bosqichidan to bugungi yangi davr nemis tili tarixida asosan qo‘shma so‘zlarni qaysi turlaridan unumli va ko‘proq foydalanilganligi ko‘zga yaqqol tashlanadi.

U. Engel fikricha, “Qo‘shma so‘zlar orqali murakkab ya‘ni kamida ikki mustaqil erkin morfemalardan tarkib topgan so‘zlar yasaladi“ degan ushbu ta‘rifga misol sifatida *Himbeere* so‘zini keltirishimiz mumkin. Lekin bu ta‘rif hozirgi zamonaviy lexicologiyada ko‘p tanqidga uchraydi. Chunki o‘zagidagi *Him* so‘zi ham bir martalik keladigan morfema hisoblanadi va bu “*erkin*” morfema hisoblanmaydi, ammo bu so‘z

<sup>4</sup> Hans Ulrich Schmid, Einführung in die deutsche Sprachgeschichte: Lehrbuch Germanistik (Stuttgart: J. B. Metzler, 2009), S.266

<sup>5</sup> Joachim Schildt, Abriß der Geschichte der deutschen Sprache (Berlin: Akademie-Verlag, 1976), S. 164.



oʻtmishda semantik jihatdan oʻz maʼno va mazmuniga ega boʻlgan. Aniqroq etadigan boʻlsak, tarixda bu soʻz etimologik lugʻatga (Das kluge Etymologische Wörterbuch 486) binoan *die Hinde* (Hirschkuh) boʻlgan degan ehtimol mavjud. Bugungi kunda aynan nima uchun *Himbeere* boʻlgani esa hozirgacha nomaʼlum.

Nemis tilida qoʻshma soʻzlardan foydalanishning asosiy sabablari - bu tildagi faol soʻzlarni ixchamlashtirish, qisqartirish, tejash yoki maxsus ilmiy soʻzlarni toʻgʻri qoʻllash hisoblanadi. Aniqroq aytganda, atamalashtirish uchun qoʻllaniladi. Masalan, *weißer Wein* → *Weißwein*, *Tag der Woche* → *Wochentag*. *eine Tür am Eingang, die aus edlem Stahl gemacht wurde ist eine Edelstahl-Eingangstür*. *Winter Semester* → *Wintersemester*, *die Lampe für den Tisch die Tischlampe* va qoʻshma soʻzlardan nafaqat nutqimizni osonlashtirish uchun, balki soʻz yasashda maʼno koʻchishni ifodalashda ham ishlatiladi. Masalan:

ein Schuh für die Berge → Bergschuh

ein Schuh mit einem Stöckel → Stöckelschuh

ein Schuh zum Skifahren → Skischuh

*Handschuh* oyoq kiyim emas, balki qoʻlqop maʼnosida koʻchma maʼnoda ishlatiladi.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, nemis tilida qoʻshma soʻzlarning ilk rivojlanish bosqichlari oldingi qadimiy adabiy davrlarga toʻgʻri keladi. Davrlar oʻtishi yangi asrlar boshlanishi bilan maxsus tematik qoʻshma soʻzlar yasalishi ham ommalashadi va qoʻshma soʻzlarning yangicha koʻrinishi, turlari paydo boʻla boshlaydi. Bundan tashqari, qoʻshma soʻzlardan soʻz boyligini oshirish uchun va koʻp soʻzlar shakli foydalanish mohiyatiga qarab soʻzlarni gapda tejab unumli aniq gapirish maqsadlarida qoʻshma soʻzlardan keng foydalanilganligini maʼlum boʻldi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hermann Paul, *Prinzipien der Sprachgeschichte* Tübingen: Max Niemeyer, 1995 S.327
2. Hans Ulrich Schmid, *Einführung in die deutsche Sprachgeschichte: Lehrbuch Germanistik*, Stuttgart: J. B. Metzler, 2009.S.242
3. Joachim Schildt, *Abriß der Geschichte der deutschen Sprache* (Berlin: Akademie-Verlag, 1976), S. 164.
4. [https://is.muni.cz/do/rect/el/estud/pedf/ps12/wortbild/web/pages/02-1\\_komposition.html](https://is.muni.cz/do/rect/el/estud/pedf/ps12/wortbild/web/pages/02-1_komposition.html)
5. <https://wnus.edu.pl/cgs/de/issue/976/article/15277/>